

AFANDI OBRAZINING IJTIMOIIY HAYOT IFODASIDAGI O'RNI

*Usmanova Mahliyo O'ktam qizi**Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

Annatatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining namunalaridan biri latifalarda Afandi obrazining ijtimoiy hayot bilan bog'liq vaziyatlardagi o'ri haqida ma'lumotlar berilgan. Nasriddin orqali yechilgan muammoli holatlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Nasriddin Afandi, latifa, obraz, ijtimoiy hayot, talqin, tinglovchi, faylasuf, hayot tajribasi.

O'zbek latifalaridagi Nasriddin obrazini ikki tomonlama talqin qilish mumkin. Birinchidan: Nasriddin Afandi har qanday og'ir hayotiy vaziyatlarda aqli, tadbirkorligi, tez fikrlashi natijasida yechim topa oladigan dono faylasufdir. U shoh saroyidagi kamchiliklarni tanqid qila oladi, boylarni, amaldorlarni, yomon xulqli odamlarni keskin kulgi ostiga oladi, o'zining xaq ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchidan: Nasriddin Afandi – o'ta sodda, hayot tajribasiga ega bo'lmagan, landavur inson. Bu Nasriddin o'zining go'lligi bilan tinglovchini lol qoldiradi. Yechimini topish talab qilingan vaziyatlarda noo'rin harakat qiladi. O'zining mazkur harakatini beo'xshov mulohazalari bilan asoslaydi. Agar talabchan podsho oldida mantiqiy fikr yuritish bilan uni mot qilgan Afandi birinchi talqinga mos kelsa, ko'cha bolalarini aldamoqchi bo'lib, keyin ularning ketidan o'zi ham chopib, o'zining gapiga o'zi aldangan Afandi ikkinchi talqinni esga soladi¹

Quydagi fikrlarning tasdig'ini Afandi latifalarini tahlil qilish orqali ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan "Nodon jamoa" latifasiga e'tibor qaratsak.

"Afandi bir kuni yahudiylarning katta boylari orasiga borib bunday dedi: – Meni taniysiz, Mulla Nasriddin Afandi bo'laman. Hozir musulmonchilikdan ko'nglim sovib turibdi, agar siz qirq kungacha meni yaxshilab ziyofat qilsangiz, sizning diningizga kiranman! Yahudiy boylari bu taklifga rozi bo'lishib, Afandini qirq kun ziyofat qildilar. Oxiri ulardan biri: – Endi vadangizga vafo qilsangiz, xayrli ish kechikmasa, – dedi.

– Ey, nodon jamoa! – dedi Afandi.

– Qirq yildan beri musulmonlarning ziyofatini yeb, haligacha tuzuk– quruq musulmon bo'lganim yo'g'– u, qirq kunlik ziyofatingizga musoyi bo'laymi?"²

Ushbu latifada Afandi har ikki din vakillariga ham tanbeh berib qo'yimoqchi bo'ldi. Chunki hamma davrda ham dinni boylik bilan o'lchaydigan odamlar topiladi. Latifaga yaxshilab e'tibor qaratadigan bo'lsak yahudiylarning o'zlarining diniga ham

¹ Z.Haydarov. Nomoddiy madaniy meros. Maruz amatni. -N. 2014. B-56

² Afandining yo'rig'i

juda sobit emasligiga guvoh bo'lamiz. Agar unday bo'lmaganda edi, ular Afandining o'zlarining qo'ygan shartiga rozi bo'lganligiga ishonmagan bo'lar edi. Shu sababli ham Afandi ularga qarata "Nodon jamoa" deya murojat qiladi. Latifa yakunida esa Afandi o'zining qirq yildan buyon musulmon ekanligini aytib, uning amallarini to'la- to'kis bajara olmayotganligini tan olish orqali, boshqa musulmonlarning ham uning darajasida ekanligiga ishro berib ketadi. Hazilning tagi zil deganidek latifaning zalvori juda og'irdir. O'sha davrda ham bugungi kunda ham o'z dinida, e'tiqodida sobit tura olmaydigan, har narsani pul bilan o'chaydigan kimsalar bor. Bizning nazdimizda ertamizda ham bunday odamlar uchraydi. "Nodon jamoa" latifasi shunday insonlarga oyna tutib, bizni esa zaharxanda kulishga, e'tiqodimiz haqida jiddiyoq o'ylashga majbur qiladi.

Nasriddin Afandi har doim o'zining to'g'riligi, haqgo'yligi tufayli jamiyatdagi hasis boylar, nohaq amaldorlar bilan kurashib yashagan. Har qanday vaziyatda ularning qilgan ishlari noo'rin ekanligini isbotlab, muammoni oddiy xalqning foydasiga hal qilishga harakat qilgan. Buning isbotini "Kim baxtsizlik keltiradi?" latifasi misolida ko'rishimiz mumkun.

"Podsho ertalab ovga borar edi, ro'parasidan Afandi chiqib qoldi. Afandining ko'rinishi ancha xunuk bo'lganidan podsho o'z odaticha xodimlariga buyurdi: – Ovning boshidan shunday badbashara odam uchradi, bugun ov yurishmaydi, olib borib uni zindonga tashla, hali ovdan qaytganda gaplashaman u bilan! Olib borib Afandini zindonga tashladilar. Ammo shu kuni podshoning ovi juda yaxshi yurishdi. Podsho ovdan qaytgach, Afandini chaqirtirib, dedi: – Agar bugun ovim yurishmaganda, seni o'ldirar edim, baxting bor ekan. – Bir savol so'rasam, maylimi? – dedi Afandi. – So'ra! – Baxtsizlik keltiradi, ovim yurishmaydi, deb meni ertalab qamatdingiz, aksincha, ovingiz yurishib ketdi. Men ham bola– chaqamning shu bugungi tirikchiligi uchun bir parcha non topgani chiqqan edim, kechgacha zindonda yotib, tirichilikdan qoldim, bola– chaqamning holi nima kechganini bilmayman. Qani, ayting– chi, ikkalamizdan qaysi birimiz baxtsizlik keltirar ekanmiz?"³

Latifa avvalida podshoh Afandining badbashar ekanligini, bugungi ovining shu tufayli yurishmasligini, unga baxtsizlik keltirishini bahona qilib uni zindonga tashlaydi. Shohning bu qilgan ishi rahbarlarning naqadar tubanlikka yuz tutganliklarini va xalqni mana shunday arziyas narsalar bilan qiynoqqa solayotganligini Afandi misolida ko'rishimiz mumkin. Bizning haqgo'y qahramonimiz esa bundaylarning jazosini juda mohirlik bilan berib qo'yadi. Podshohning ov oldidan uning ro'parasidan badbashara inson chiqishiga qaramasdan, ovi baroridan kelganligi sababli Afandini zindondan ozod qiladi. Nasriddin ozod bo'lganidan so'ng podshohga inkor qilib bo'lmas dalillarni keltirgan holda kim kimga baxtsizlik olib kelganligini isbotlab

³ Afandining yo'rig'i.

beradi. Bu latifa o'z boyligiga, mansabiga ishonib xalqni turli xil qiyinchiliklarga duchor qilishdan qaytmaydigan insonlarning partretini chizish va ularga asl yuzlarini ko'rsatishga qaratilgan. Afandi ushbu latifada podshohga o'xshagan insonlarning asl basharasini ko'rsatish bilan bir qatorda, ularga qanday dakki berishni ham o'rgatib ketadi.

“Kosa, kosa tagida nimkosa”, deganlaridek ushbu latifada Afandi hokim idorasidagi hodimlarning, yuqori lavozim egalarining asl yuzlari qandayligiga ishora qiladi. Shuning uchun ham latifadagi voqealar Afandi hokimning mahkamasida o'tirgan vaqtida sodir bo'lgan. So'zni o'z o'rnida tuqtasiga tekkizib qo'llaydigan qahramonimiz aynan hokimning mahkamasiga “Har kuni keladigan o'g'rilar ham bor”, deyish bilan jamiyatga tashqaridan keladigan mayda o'g'rilardan ko'ra, ichkaridagi katta talonchilarning keltiradigan zarari ko'pligini aytib o'tadi. Afandi birinchi galdagi tozalash ishlarini katta lavozimdagi boshqaruvchilar orasidan boshlash kerakligiga ishora qiladi. Albatta hokimlarimiz halol bo'lishsagina jamiyatda o'sish va o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Xalqimizga juda ham tanish va mashhur bo'lgan latitalardan biri “Siz ahmoq – odam emassiz”⁴ da ham Afandining o'ta darajada tadbirkorligini ko'rishimiz mumkin. *“Afandi bir kuni gaplashib o'tirib, a'lamni “Siz ahmoq odamsiz” deb qo'ydi. A'lam uni podshohning oldiga sudradi. Podshoh Afandiga bir qancha po'pisa– siyosatlar qilgandan keyin:*

- *Darrov uzr ayt, siz ahmoqodam emassiz, kechirasiz degin, yo'qsa hozir jallodni chaqiraman! – dedi.*

Afandi a'lamga qarab dedi:

“Siz ahmoq – odam emassiz! Kechirasiz !...”

Afandi har qanday vaziyatda ham podshoh va saroy amaldorlariga chap bermaslikning yo'lini topa olgan, ularni har doim o'zining uddabironligi va oqilona berilgan javoblari bilan mot qila olgan. Nasriddinning aynan manashu hislatlari uning xalq orasida hozirgacha yashab kelayotgaligining asosiy sabablaridan biri bo'la oladi. Ushbu latifada ham u: “Siz ahmoq – odam emassiz! Kechirasiz !...” degan jumlasida so'zga kerakli o'rinda urg'u bergan holda a'lamga javob berib ham jazodan mahkum bo'ldi, ham o'z maqsadini amalga oshira oldi.

Umuman olganda latifalarda Nasriddin Afandi obrazi oddiy xalq vakili sifatida olinib, ular tomonidan gapiradi va ularning ujtimoiy hayotdagi muammolarini turli vaziyatlarda har xil qiyofalarga kirish yo'li bilan ochib berishga harakat qiladi. Jamiyatdagi xalqqa zarar berayotga qusurlarni kuchli satira ostiga olish orqali yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Latifalarni o'qib o'rganish davomida Nasriddin Afandi obrazi chin ma'noda xalqning sevimli qahramoni ekanligiga amin bo'ldik.

⁴ Nasriddin Afandi latifalari. Toshkent, 1960, 112-bet